

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)


(joriy narxlarda, mldr. so'm)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning hajmi joriy narxlarda 107 918,1 mldr. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,0 %ga o'sdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2022- yil yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,4 %ni tashkil qildi.


Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajmi va deflyator indeksi dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da).

2022- yil yanvar-dekabr



2023- yil yanvar-dekabr



Deflyator indeksi


Fizik hajmi indeksi

**Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)**

2023- yil yanvar-dekabr oylarida



2022- yil yanvar-dekabr oylarida



Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari yalpi hududiy mahsulot o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'inining o'sish sur'ati 104,0 % (yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi – 22,4 %), sanoat – 105,1 % (47,0 %), qurilish – 106,2 % (5,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 109,3 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 108,7 % (4,8 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlari – 103,0 % (13,5 %)ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi hududiy mahsulot 35 703,7 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 %ga o‘sdi.

O‘tgan yilning shu davrida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 31 952,4 ming so‘mni va 104,0 %ni tashkil qilgan.

**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so‘mda)**




**Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)**



Ma’lumot uchun: Respublika bo‘yicha 2023- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi **1 066 569,0** ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davrriga nisbatan **6,0** %ga o‘sdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda **896 617,9** ming so‘mni va **105,7** %ni tashkil qilgan.


**Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda
kichik biznesning yalpi qo'shgan qiymati hajmi
(mlrd. so'mda)**



Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda 2023-yilda kichik tadbirkorlikning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 48,7 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagи ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog'liq.

**Kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi
(yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan)**



**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
Yalpi hududiy mahsulotning ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %da</i>
	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	
I.Yalpi hududiy mahsulot - jami	94 789,9	107 918,1	105,0
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	91 143,4	104 002,2	105,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	3 646,5	3 915,9	104,7
II.Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	91 143,4	104 002,2	105,0
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	20 055,8	23 266,3	104,0
Sanoat (qurilishni qo‘sghan holda)	49 104,8	54 949,4	105,2
sanoat	44 003,5	48 926,1	105,1
qurilish	5 101,3	6 023,3	106,2
Xizmatlar	21 982,8	25 786,5	105,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 572,0	6 783,9	109,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	4 090,0	5 043,7	108,7
boshqa xizmat tarmoqlari	12 320,8	13 958,9	103,0

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**




Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rinish turibdiki, Xizmatlar sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2022- yildagi 24,1 %dan 2023- yilda 24,8 %ga, qurilish tarmog'ining ulushi 5,6 %dan 5,8 %ga, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibidagi ulushi 22,0 %dan 22,4 %ga oshdi.

Sanoat sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2022- yildagi 48,3 %dan 2023- yilda 47,0 %ga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida jami xizmatlar sohasining ulushi 24,8 %ga to‘g‘ri keldi, jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 6,5 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 4,8 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 13,5 %ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo‘silgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan)**




Ma’lumot uchun: 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida jami xizmatlar ulushi **24,1** %ga to‘g‘ri kelgan, jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi **6,1** %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - **4,5** %ni, boshqa xizmat tarmoqlari – **13,5** %ni tashkil etgan.

Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida Yalpi hududy mahsulot deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 111,6 % hamda qurilishda – 111,2 % qayd etildi.



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘silgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘silgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati) doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.